


# SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.*

|   |                   |
|---|-------------------|
| Ro'yxatdan o'tgan korxonalar                | 50 148<br>120,1 % |
| Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar          | 47 295<br>119,8 % |
| Yangi tashkil etilgan korxonalar (yanvarda) | 924<br>135,3%     |

Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha  
2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)

4

24 511



Mas'uliyati cheklangan  
jamiyatlar

9 176



Oilaviy korxonalar

156



Unitar korxonalar

7 356



Xususiy korxonalar

29



Aksiyadorlik jamiyatlari

287



Boshqa korxonalar

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.

# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022-yil yanvar oyida, birlikda)



■ 2021-y. ■ 2022-y.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil yanvar oyida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




# Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022 yil 1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,8** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




# Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)






Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6,2** foizga oshdi



## Kichik tadbirkorlik subyektlari



## Mikrofimlar

## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

## Oilaviy korxonalar




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar




(1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari




## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar



# Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


9



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)





Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 9 784 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 465 taga yoki 33,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 9 176 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 302 taga yoki 33,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 186 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 taga yoki 1,6 % ga kamayganini ko'rish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra 669 tani tashkil etib, ulardan 656 tasi yoki 98,0 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 66 taga yoki 11,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar oyida 11 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil yanvar oyida, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.

# Samarqand viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

|                                    | <i>Jami</i> | <i>shundan:</i>          |                          |
|------------------------------------|-------------|--------------------------|--------------------------|
|                                    |             | <i>Qo'shma korxonona</i> | <i>xorijiy korxonona</i> |
| <i>Samarqand viloyati</i>          | <b>656</b>  | <b>436</b>               | <b>220</b>               |
| <i>Afg'oniston</i>                 | <b>48</b>   | <b>17</b>                | <b>31</b>                |
| <i>Xitoy Xalq Respublikasi</i>     | <b>100</b>  | <b>72</b>                | <b>28</b>                |
| <i>Eron Islom Respublikasi</i>     | <b>31</b>   | <b>21</b>                | <b>10</b>                |
| <i>Qozog'iston Respublikasi</i>    | <b>17</b>   | <b>13</b>                | <b>4</b>                 |
| <i>Janubiy Koreya Respublikasi</i> | <b>46</b>   | <b>30</b>                | <b>16</b>                |
| <i>Rossiya Federatsiyasi</i>       | <b>90</b>   | <b>62</b>                | <b>28</b>                |
| <i>Tojikiston Respublikasi</i>     | <b>16</b>   | <b>13</b>                | <b>3</b>                 |
| <i>Turkiya Respublikasi</i>        | <b>112</b>  | <b>70</b>                | <b>42</b>                |
| <i>Amerika Qo'shma Shtatlari</i>   | <b>21</b>   | <b>16</b>                | <b>5</b>                 |
| <i>Boshqalar</i>                   | <b>175</b>  | <b>122</b>               | <b>53</b>                |

Samarqand viloyatida 2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 656 tani tashkil etadi, shundan, 436 tasi qo'shma korxonona hamda 220 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri kelmoqda. Davlatlar kesimida ko'rib chiqqanda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan) Turkiya Respublikasi 112 ta, shundan 70 tasi qo'shma korxonalar, 42 tasi esa xorijiy korxonalar, Xitoy Xalq Respublikasi 100 ta, shundan 77 tasi qo'shma korxonalar, 28 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)

13



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar nisbatan) Turkiya Respublikasi 17,0 %, Xitoy Xalq Respublikasi 15,2 %, Rossiya Federatsiyasi 13,7 %, Janubiy Koreya Respublikasi 7,0 % va Amerika Qo'shma Shtatlari 3,2 % ga to'g'ri kelmoqda.

# Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)

14

|                    | Jami | shundan:           |                    |
|--------------------|------|--------------------|--------------------|
|                    |      | qo'shma korxonalar | xorijiy korxonalar |
| Samarqand viloyati | 656  | 436                | 220                |
| Samarqand sh       | 293  | 168                | 125                |
| Kattaqo'rg'on sh   | 22   | 18                 | 4                  |
| tumanlar:          |      |                    |                    |
| Oqdaryo            | 35   | 27                 | 8                  |
| Bulung'ur          | 24   | 11                 | 13                 |
| Jomboy             | 47   | 37                 | 10                 |
| Ishtixon           | 15   | 10                 | 5                  |
| Kattaqo'rg'on      | 12   | 10                 | 2                  |
| Qo'shrabot         | 23   | 11                 | 12                 |
| Narpay             | 5    | 4                  | 1                  |
| Payariq            | 16   | 11                 | 5                  |
| Pastdarg'om        | 31   | 24                 | 7                  |
| Paxtachi           | 10   | 5                  | 5                  |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahri – 293 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 44,7 %), Jomboy – 47 ta (7,2 %), Oqdaryo – 35 ta (5,3 % hamda Pastdarg'om tumanlarida 31 tani (4,7 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Narpay – 5 ta (0,7 %), Paxtachi 10 ta (1,5 %) hamda Kattaqo'rg'on 12 tani (1,8 %) ni tashkil etgan.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (28,6 %), Urgut (8,5 %), Pastdarg'om (8,4 %), Samarqand (7,6 %), Payariq (5,3 %), Ishtixon (5,4 %), Kattaqo'rg'on (5,1 %), Oqdaryo (4,3 %), Toyloq (4,3 %), Bulung'ur (4,0 %), Jomboy (4,0 %), Kattaqo'rg'on shahri (3,3 %), Narpay (3,2 %), Nurobod (3,1 %), Paxtachi (2,6 %) va Qo'shrabot (2,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar oyida, birlikda)

2022- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Samarqand shahrida (27,2%), Pastdarg'om (7,0%), Urgut (6,6%), Samarqand (7,9%), Ishtixon (6,6%), Oqdaryo (5,3%), Kattaqo'rg'on (5,7 %), Payariq (4,3%), Toyloq (4,9%), Jomboy (3,9 %), Bulung'ur (5,1 %), Nurobod (3,6 %), Paxtachi (3,0 %), Narpay (3,5 %), Kattaqo'rg'on shahri (3,0%) va Qo'shrabot (2,4 %) tumanlari ulushiga tegishli.






2022- yilning yanvar oyida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Samarqand shahrida (18,2 %), Pastdarg'om (4,8 %), Samarqand (5,4 %), Payariq (6,5 %), Kattaqo'rg'on (16,7 %), Oqdaryoda (5,9 %), Urgut (6,5 %), Jomboy (8,6%), Bulung'ur (9,1 %), Toyloq (2,7 %), Ishtixon (3,2 %), Narpay (4,3 %), Qo'shrabot (4,3 %), Kattaqo'rg'on shahar (1,6 %), Paxtachi (1,1 %) va Nurobod (1,1 %) tumanlari ulushga ega.

## Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yilning yanvar oyida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Samarqand viloyati statistika boshqarmasi**

**Statistik registrlarni yuritish  
bo'limi**

**Tel.: 66 235-14-42**